



## JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISH UCHUN JINOIY JAVOBGARLIKNING RETROSPEKTIV TAHLILI

**To'rayeva Shaxzoda Sherzod qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoyat huquqi fani

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15699324>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-Iyun 2025 yil

Ma'qullandi: 14-Iyun 2025 yil

Nashr qilindi: 19-Iyun 2025 yil

### KEY WORDS

*pul yuvish, legalizatsiya, UNODC, FATF, Jinoyat kodeksi, jinoyat huquqi, milliy qonunchilik islohoti, xalqaro qiyoslash, xalqaro hamjamiyat, Vena Konvensiyasi, jinoyat daromadlari, xalqaro huquq, BMT konvensiyalari, korrupsiya, transmilliy jinoyatlar, moliyaviy monitoring, profilaktika, iqtisodiy xavfsizlik.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqola jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish (pul yuvish) jinoyatiga qarshi kurashning tarixiy, huquqiy va xalqaro-huquqiy asoslarini yoritadi. Unda AQSh, Italiya va Buyuk Britaniya tajribasi, xalqaro hujjatlar (Vena, Korrupsiyaga qarshi konvensiyalar), shuningdek, FATF kabi tashkilotlarning roli tahlil qilinadi. Shuningdek, maqola O'zbekistonda mazkur jinoyat uchun javobgarlikning shakllanish bosqichlari, qonunchilik rivoji va hozirgi kundagi institutsional choralarni qamrab oladi*

INNOVATIVE  
ACADEMY

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadni legallashtirish eng keng tarqalgan xavfli transmilliy jinoyatlardan biridir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (UNODC) ma'lumotlariga ko'r 2020-2024-yillar oraliq'ida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishda global miqyosda yillik \$800 milliarddan \$2 trilliongacha pul yuviladi, bu esa global yalpi ichki mahsulotning 2-5% ini tashkil etadi. Afsuski, aniqlangan noqonuniy moliyaviy oqimlarning atigi 1%i huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan aniqlandi<sup>1</sup>.

Bunday salbiy omillar ta'sirida mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi va barqarorligiga jiddiy tahdid solishi mumkin. Shu sababli, hozirgi vaqtda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni qonuniylashtirishning tobora kuchayib borayotgan ijtimoiy xavfi jahon hamjamiyatining aksariyat davlatlarini tashvishga solmoqda.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish – jinoiy javobgarlikka tortiladigan ijtimoiy xavfli qilmish bo'lib, jinoiy faoliyat natijasida olingan mol-mulkni boshqa shaxsga o'tqazish, o'zgartirish yoki ayirboshlash, shuningdek, mulkning asl mohiyatini, manbasini, joylashgan joyini, tasarruf etish yo'lini, ko'chirilishi yoki unga nisbatan egalik qilishda olingan haqiqiy huquqlarni oshkor etmaslik yoki yashirish orqali amalga oshiriladigan jinoiy harakatlar natijasidir.

O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 26-avgustda qabul qilingan "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni<sup>2</sup> qabul qilinganidan buyon mamlakatimizda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo'yicha davlat tizimi tizimli ravishda yaratilib, zamonaviy xalqaro standartlarga javob beradi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 243-moddasiga ko'ra jinoiy faoliyat natijasida olingan mol-mulkni boshqa shaxsga o'tkazish, konvertatsiya qilish yoki almashtirish, shuningdek, agar mulk jinoiy faoliyat natijasida olingan bo'lsa, uning asl mohiyatini, manbasini, joylashgan joyini, tasarruf etish, ko'chirish usulini, haqiqiy egalik huquqlarini yoki kimga qarashliligini aniqlash yoki sir saqlash jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish hisoblanadi<sup>3</sup>.

Oliy sud Plenumining 2011-yil 11-fevraldagi „Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyotining ayrim masalalari to'g'risida"gi qarorida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish deganda jinoiy faoliyatdan olingan mol-mulkning kelib chiqishiga qonuniy tus berilishi lozimligi qayd etilgan. Ushbu holatda, Fuqarolik kodekining 169-moddasida<sup>4</sup> nazarda tutilgan har qanday mol-mulk mulk obyekti sifatida qaralishi mumkin.

Bunday mol-mulkning kelib chiqishiga qonuniy tus berilishi, odatda, pul mablag'lari yoki mulkka nisbatan moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish va/yoki bitimlar tuzishda ifodalanadi<sup>5</sup>.

#### **ASOSIY QISM**

Biz bu jinoyatni retrospektiv jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, uni shartli ravishda 2 qismga bo'lib o'rganamiz: O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda ayrim xorijiy mamlakatlarda paydo bo'lish va rivojlanish bosqichlari.

O'zbekiston Respublikasida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo'yicha jinoyat qonunchiligini tahlil qiladigan bo'lsak, davlatimiz mustaqillikka erishguncha qadar bo'lgan davrda O'zbekiston SSR Jinoyat kodekslarida bunday huquqbuzarlik bo'lmagan.

Ma'lumki, Sovet hukumati xususiy mulk huquqini bekor qildi. Biroq, SSR kodekslarini o'rganib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, 1926-yildagi O'zSSR Jinoyat kodeksida ma'lum darajada noqonuniy yo'l bilan oligan daromadlarni legallashtirishga o'xshash qoida mavjud edi.

Ushbu kodeksning "Davlat jinoyatlari" to'g'risidagi I bobida 81, 82, 83-moddalarida jinoyatning tahlil qilingan tarkibiga o'xshash normalar mavjud, xususan:

1. Merosga o'tgan yoki hadya qilish aktlari bo'yicha berilgan mol-mulkni to'liq yoki qisman yashirish, shuningdek meros va hadya qilish to'g'risidagi qonunlarni, shuningdek meros solig'i va hadya qilish aktlari bo'yicha o'tkazilgan mol-mulk to'g'risidagi qonunlarni chetlab o'tish maqsadida mulk qiymatini sun'iy ravishda pasaytirish.

2. Obyektlar yoki mahsulotlarning miqdorini yashirish yoki noto'g'ri ko'rsatish o'zaro kelishuv asosida tashkil etilgan soliqqa tortiladi yoki hisobga olinadi.

3. Musodara qilish yoki majburan sotib olish uchun yer islohotini amalga oshirishda hisobga olinishi lozim bo'lgan er maydoni hajmini hamda yashash va metr uzunlikdagi qishloq xo'jaligi texnikasi sonini yashirish yoki noto'g'ri ko'rsatish, shuningdek, mahalliy yer komissiyalari tomonidan ro'yxatga olingan mulkni o'zlashtirish yoki o'g'irlash.

Bozor iqtisodiyoti minimal darajaga tushirilgan SSSRda jinoiy daromadlarni qonuniylashtirish deyarli mumkin emas edi, bu esa iqtisodiy jinoyatlarning o'sishiga sezilarli darajada to'sqinlik qildi<sup>6</sup>. 1959-yilgi navbatdagi Jinoyat kodeksida umumiyroq qoida mavjud edi: u jinoyat sodir etish natijasida bila turib olingan mulkni sotib olish yoki sotish uchun jazolarni belgilab berdi. Qoida tariqasida, ushbu jinoyatning predmeti sotsialistik mulk bilan bog'liq bo'lgan, ko'pincha o'g'irlik, shuningdek, boshqa jinoiy tajovuzlarni sodir etishda qo'lga kiritilgan narsalar edi, masalan, noqonuniy daraxt kesish yoki kontrabanda.

1959-yilgi Jinoyat kodeksida xuddi shunday moddalar "Sotsialistik mulkka qarshi jinoyatlar" va "Fuqarolarning shaxsiy mulkiga qarshi jinoyatlar" III-IV boblarida o'z aksini topgan:

a) 121-modda "Jinoiy yo'l bilan qasddan olingan mol-mulkni sotib olish yoki sotish, agar mulk davlat yoki jamoat mulki bo'lsa";

b) 132-modda "Jinoiy yo'l bilan bila turib olingan mol-mulkni sotib olish yoki sotish, agar mulk shaxsiy mulk huquqiga ega bo'lsa". Ikki Jinoyat kodeksining normasini o'rganib chiqib, shunday xulosaga kelish mumkinki, agar 1926-yildagi Jinoyat kodeksining tahririda pul yuvishga o'xshash jinoyatlar boshqaruv buyrug'iga qarshi jinoyatlar sifatida tasniflangan bo'lsa, 1959-yil keyingi nashrida jinoyatning mulkiy va iqtisodiy xususiyatiga e'tibor qaratilgan.

Ushbu toifadagi jinoyatlarga nisbatan xuddi shunday yondashuv Jinoyat kodeksining keyingi nashrlarida ham o'z aksini topgan.

1994-yil Jinoyat kodeksida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish jinoyat sifatida 243-moddada aks ettirilgan. Ushbu moddaning qoidalari dastlab jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni oshkorlashtirish, ya'ni jinoiy faoliyat natijasida topilgan mulkni o'tkazish, mulkka aylantirish yoki almashtirish, shuningdek, jinoiy faoliyat natijasida olingan mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini, tasarruf etish, tashilish usulini, mulkga nisbatan haqiqiy egalik huquqining yoki uning kimga qarashliligini yashirish yoki sir saqlash belgilangan<sup>7</sup>.

O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 22-sentabrdagi 223-son Qonuni tahriridagi 243-moddaning dispozitsiyasi „Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, ya'ni mulk (pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk) jinoiy faoliyat natijasida topilgan bo'lsa, uni o'tkazish, mulkka aylantirish yoxud almashtirish yo'li bilan uning kelib chiqishiga qonuniy tus berish, xuddi shuningdek bunday pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini, tasarruf etish, ko'chirish usulini, pul mablag'lariga yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki uning kimga qarashliligini yashirish yoxud sir saqlash" tarzida o'zgartirilgan<sup>8</sup>

Yangi tahrirdagi moddaning asosiy maqsadi jinoiy mulkning kelib chiqishiga qonuniy tus berish bilan birga bo'lishi kerakligini ko'rsatish zaruratidir. Ushbu qoida jinoiy daromadlarning odatiy aylanmasini qonuniylashtirishdan ajratish imkonini beradi. Jinoyat huquqi nazariyasini o'rganar ekanmiz, jinoiy yo'l bilan topilgan har qanday mulk u yoki bu tarzda sotilishi mumkin degan xulosaga kelishimiz mumkin, lekin bu har doim ham legalizatsiyaning zaruriy belgisi emas. Faqatgina jinoiy faoliyatdan olingan daromadga qonuniy shakl berish istagi mavjud bo'lsagina biz 243-modda bilan kvalifikatsiya qila olamiz.

Ushbu jinoyatning xorijiy davlatlar retrospektiv tahliliga keladigan bo'lsak, pul yuvish (jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish) tushunchasi dastlab 20-asr boshlarida yuzaga kelgan. AQSH Prohibitsiya davrida (1920-1933) jazz-barlar va kir yuvishxonalaridan foydalangan gangsterlar noqonuniy daromadlarni tozalashga harakat qilgan. Masalan, mashhur mafioza Al Kapone noqonuniy ravishda topilgan daromadlarni "qonuniy" biznes – kir yuvishxonalariga o'tkazib, shu yo'l bilan qonuniylashtiradi<sup>9</sup>. Ma'lumotlarga ko'ra, jinoyatchilar kir yuvish muassasalari kabi shaxsiy bizneslarni noqonuniy daromadni qonuniy daromadga aylantirish uchun ishlatganligi sababli ushbu atama paydo bo'lgan. Ammo, pul yuvish atamasi va uni qonuniy jinoyat deb tan olish masalasi keyinchalik – jinoyatchilik va narkotiklarning keskin oshganligi bois davlatlar tomonidan alohida ko'rib chiqila boshlaydi.

Pul yuvish jinoyatini qonuniy tusga kirishi 1980-yillar o'rtalariga to'g'ri keladi. Masalan, AQSh 1986-yilda Money Laundering Control Act qabul qilib, pul yuvishni federal miqyosda jinoyat deb e'lon qilgan birinchi davlat bo'ldi<sup>10</sup>. AQShda 1970-yilda Bank Secrecy Act qabul qilingan bo'lsa, 1986-yilda esa aynan pul yuvishga qaratilgan qonun yaratilib, noqonuniy pul mablag'larini strukturaviy tarzda boshqarish, hisobot berish va mol-mulkni musodara qilish kabi choralar kiritildi. Shu bilan birga, boshqa davlatlar ham o'sha davrlarda pul yuvishga qarshi qonuniy tashkiliy choralarni kuchaytirdi. Masalan, Italiya 1991-yilda 197-sonli qonunni qabul qilib, o'sha yili Yevropa Ittifoqi tomonidan chiqarilgan birinchi pul yuvishga qarshi direktivani o'z ichiga olgan. Buyuk Britaniya esa 1986-yilda Drug Trafficking Offences Act va 1988-yilda Criminal Justice Act qabul qilib, asosan narkotikdan olingan daromadlarga nisbatan pul yuvishni jinoyat qismiga kiritgan.

AQSh pul yuvishga qarshi kurash bo'yicha alohida qonunchilikni 1970-yildan boshlagan. Bank Secrecy Act (1970) moliya institutlariga katta miqdordagi naqd pul operatsiyalarini markazlashtirilgan tarzda yozib borishni buyurdi. Aslida tozalash harakatlariga qarshi kurash avvalroq ham bo'lgan – masalan, 1930-yillarda Adol Caponeni soliq-to'lovlari bo'yicha sudga berish orqali ta'qib qilishgan, biroq 1986-yilgacha pul yuvish nomi ostida alohida jinoyat mavjud emas edi. 1986-yilda Money Laundering Control Act qabul qilib, AQSh pul yuvishni jinoyat deya rasman belgiladi va bu qonun 18 USC §1956–1957 moddalari orqali noqonuniy pul bilan bog'liq faoliyatni qamrab oldi<sup>11</sup>.

Italiya pul yuvishga qarshi birinchi tadbirlarni Yevropa standartlari asosida amalga oshirgan. 1991-yilda qabul qilingan 197-sonli qonun (Legge Antiriciclaggio) YEIning birinchi AML direktivasini to'liq qabul qilib, bank va moliya tashkilotlariga ogohlantirish va hisob-kitob yuritish majburiyatlarini kiritdi. Keyinchalik Italiya qonunchiligi bir necha bor

yangilandi: 2007-yilda 231-sonli dekret bilan yangi direktivalar qabul qilinib, AML tartibotlari kuchaytirildi. Straf kodeksida esa pul yuvish jinoyatiga oid modda (648-bis c.p.) mavjud. Shuningdek, 2014-yilda Italiya konstitutsiyasiga kiritilgan yangi 648-ter.1-moddada «avtoritsiklaggio» – ya'ni o'zining olingan noqonuniy daromadini qayta tozalash jinoyati ham qoralandi<sup>12</sup>.

Buyuk Britaniyada ham pul yuvishga qarshi ilk jinoyat moddalari 1980-yillarda paydo bo'lgan. 1986-yilda Drug Trafficking Offences Act orqali narkotrafikdan kelib chiqqan pullarni yuvish jarayonlariga qarshi ko'plab bandlar kiritildi. 1988-yilda esa Criminal Justice Actga pul yuvishga oid yangi jinoyat moddalari qo'shildi, bu qonun narkotik oqimlaridan olingan daromadning qonunniylashtirilishini ta'qiqladi. Amalga kiritilgan tadbirlar tufayli moliya institutlari va boshqa idoralar o'z faoliyatida yo'qotishlar bo'lmasligi uchun katta xarajatsiz tranzaksiyalarni aniqlash hamda hisobot berish majburiyatiga ega bo'ldi. 2002-yilda esa Buyuk Britaniyaning Proceeds of Crime Act qabul qilinib, unda «jinoyat mulki» tushunchasi kengaytirildi va pul yuvishga oid jazo me'yori yanada qattiqlashtirildi<sup>13</sup>.

Pul yuvish muammosi xalqaro hamjamiyat diqqatiga ilk bor 1988-yilda Vena shahrida qabul qilingan Narkotiklarni va psixotrop moddalarni noqonuniy aylanmasiga qarshi konvensiya orqali tushdi. Ushbu konvensiyaning 3.1-moddasida jinoyat daromadlarini bilib turib konvensiya qilish yoki mulk harakatlarini yashirish amali jinoyat deb belgilandi. Keyingi yillar kontekstida, 2000-yilda BMT Shimoliy Italiya shahrida (Palermo) o'tkazilgan anjumanda Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiya qabul qilindi. Uning 6-moddasida "jinoyatdan olingan mulkni bilib turib almashinish, ko'chirish, qo'lga kiritish, egalik qilish yoki undan foydalanish" kabi harakatlar pul yuvish deb tan olinishi kerakligi bayon etiladi. 2003-yilda esa Korrupsiyaga qarshi BMT konvensiyasi (UNCAC) qabul qilinib, 23-moddada korrupsion jinoyatlardan kelib chiqqan mulkni yuvish harakatini deyarli Palermo konvensiyasiga o'xshash tarzda jinoyat deb belgilashni talab qildi. Ushbu xalqaro hujjatlar mamlakatlarga pul yuvishga qarshi milliy qonunlarni qabul qilishni majburiy qildi<sup>14</sup>.

Pul yuvishga qarshi global hamkorlikning muhim bo'g'inlaridan biri – 1989-yilda G7 davlatlari tomonidan tuzilgan FATF (Financial Action Task Force) hisoblanadi. FATF tashkil etilganida unga pul yuvish metodlarini o'rganish, milliy choralarning holatini tekshirish va standartlar ishlab chiqish vazifasi topshirildi. 1990-yillarda FATF 40 ta tavsiyani e'lon qilib, ularning ijrosini a'zolariga majburiy qildi. Bu tavsiyalar dunyo mamlakatlari tomonidan AML-CFT qonunchiligini kuchaytirishda asosiy xalqaro me'yor sifatida qabul qilindi. Hozirgi kunda FATF sug'urta qilgan qoidalar va bir qator moliyaviy razvedka bo'limlari (Egmont guruhi kabi) ham pul yuvish va terrorizm moliyalashtirilishini oldini olishda muhim rol o'ynamoqda<sup>15</sup>.

**XULOSA** Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish (pul yuvish) – zamonaviy davrning eng murakkab va xavfli jinoyatlaridan biri bo'lib, nafaqat iqtisodiy xavfsizlikka, balki global moliyaviy tizimning barqarorligiga jiddiy tahdid soladi. Ushbu jinoyatning murakkabligi shundaki, u ko'pincha boshqa og'ir jinoyatlar – narkotrafik, korrupsiya, terrorizm, kontrabanda va tashkil etilgan jinoyatchilik bilan bevosita bog'liq

bo'ladi. Daromadni yasal holga keltirish orqali jinoyatchilar nafaqat jinoiy faoliyatdan foyda ko'radi, balki uni qonuniy muomalaga kiritib, davlat nazoratidan yashirinishga erishadi.

**Xulosa qilib aytganda, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish uchun jinoiy javobgarlikning retrospektiv tahlili asosida ushbu jinoyat uchun javobgarlik belgilanishini 3 bosqichga ajratish mumkin:**

**I-bosqich (qadimgi davrdan – 1980-yillargacha).** Jinoiy faoliyatdan olingan daromadni legallashtirish uchun javobgarlikning dastlabki o'rnatilishi (birinchi bosqich)ni ko'rib chiqadigan bo'lsak, pul yuvish jinoyati dastlab 20-asrda AQSHda maxsus kirxonalar faoliyatidan kelib chiqib, mafioza Al Kapone nomi bilan uzviy bog'langan. O'zbekiston tarixining ilk bosqichida unga nisbatan javobgarlik umumiy jinoyat huquqi doirasida baholangan. O'zbekiston SSR davrida to'g'ridan-to'g'ri bu jinoyat turi mavjud bo'lmagan bo'lsa-da, 1926 va 1959-yillardagi Jinoyat kodekslarida jinoyat yo'li bilan olingan mol-mulkni yashirish yoki sotib olishga oid ayrim normalar mavjud bo'lgan. Mazkur normalar orqali davlat mulkini yoki soliqqa oid qonunlarni buzganlik uchun jazo nazarda tutilgan. Sovet davrida xususiy mulkning cheklanganligi sababli, jinoyat daromadlarini qonuniylashtirish uchun iqtisodiy zamin deyarli yo'q edi.

**II-bosqich (1986-2009-yillar).** Ushbu davr mobaynida maxsus qonunlar qabul qilingan bo'lib, XX asr oxirlariga kelib, xalqaro miqyosda pul yuvishga qarshi kurash kuchaytirildi. AQSh 1986-yilda "Money Laundering Control Act"ni qabul qilib, pul yuvishni federal jinoyat sifatida tan oldi. Keyinchalik Italiya, Buyuk Britaniya va boshqa davlatlar ham bu boradagi qonunchilikni ishlab chiqdi. Xalqaro hujjatlar – Vena (1988), Palermo (2000) va BMT Korrupsiyaga qarshi (2003) konvensiyalari bilan bu jinoyatga qarshi majburiy chora-tadbirlar belgilandi. O'zbekistonda esa 1994-yilda Jinoyat kodeksining 243-moddasi orqali bu jinoyat mustaqil tarkib sifatida qonunchilikka kiritildi. 2009-yildagi tahrir orqali esa uning huquqiy ta'rifi yanada aniqlashtirildi va legallashtirish harakatining mohiyati aniq belgilab berildi.

**III-bosqich (2010-yildan hozirgi kungacha).** Bugungi kunda O'zbekistonda pul yuvishga qarshi kurash kompleks tarzda olib borilyotganligini, Jinoyat kodeksi bilan bir qatorda, moliyaviy monitoring, bank va soliq organlari faoliyati, bojxona nazorati va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik bu boradagi asosiy vositalari ekanligini ko'rishimiz mumkin. Davlat xalqaro tajribani chuqur o'rganmoqda, FATF tavsiyalarini inobatga olgan holda milliy qonunchilikni moslashtirmoqda. Biroq asosiy e'tibor jinoyatni aniqlashdan ko'ra, uning oldini olish, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish va profilaktik choralarni kuchaytirishga qaratilmoqda.

Yuqorida ushbu jinoyat uchun javobgarlik belgilangan qonunlarni rivojlanish tarixini retrospektiv nuqtai-nazardan tahlil qildik. Tahlil asosida shunday xulosaga keldikki, biz uni uchta bosqichga bo'lishimiz mumkin ekan: qadimgi davrdan kodefikatsiyagacha bo'lgan davr, kodefikatsiyadan mustaqillikacha bo'lgan davr hamda mustaqillikdan keyingi eng yangi davr. Ushbu jinoyat uchun javobgarlik belgilangan qonun normalarini rivojlanishini o'rganish bizga bu jinoyat uchun nima sababdan javobgarlik belgilanganligi, uning ijtimoiy xavfliligi, ushbu jinoyat uchun javobgarlik qanday takomillashib borayotganligi to'g'risida xulosalar chiqarishga va kelajakda ushbu jinoyatga qarshi kurashish va uni oldini olishga xizmat qilishi mumkin

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun // <https://lex.uz/acts/-283717>
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi <https://lex.uz/docs/-111453>
3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi <https://lex.uz/docs/-111189>
4. Oliy sud Plenumining „Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyotining ayrim masalalari to'g'risida"gi qarori <https://lex.uz/mact/-1766419>
5. Fazilov F.M. Legalization of revenue received from criminal activities (criminal-legal and criminological aspects). Monograph.

